ABAY QUNANBAYEV ASARLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA G'OYALARI VA ULARDAN ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH

M.A.Kazakbayeva[1]

1. Navoiy davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dosenti v.b

Mas'ul muallif: Kazakbayeva Mariya Alimkulovna, Navoiy davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dosenti v.b.

e-mail: kazakbaevamaria33@gmail.com

Received: 12 Noyabr 2026
Accepted: 17 Noyabr 2026
Published: 22 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Kazakbayeva, M. A. ABAY QUNANBAYEV ASARLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA G'OYALARI VA ULARDAN ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH / M. A. Kazakbayeva // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 211–214.

Annotatsiya. Maqolada Abay Qunanbayev asarlarida aks etgan ma'naviy-axloqiy tarbiya g'oyalari tahlil qilinadi. Shoir ijodida ilm-ma'rifat, halol mehnat, insonparvarlik, adolat, sabr-toqat va yoshlar tarbiyasi masalalariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ushbu g'oyalarni zamonaviy ta'lim jarayonida o'rganish va o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda qo'llash imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abay Qunanbayev, she'riyat, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, ilm-ma'rifat, mehnatsevarlik, zamonaviy ta'lim.

ИДЕИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБАЯ КУНАНБАЕВА И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В статье анализируются идеи духовно-нравственного воспитания, отражённые в произведениях Абая Кунанбаева. Рассматриваются вопросы просвещения, честного труда, гуманизма, справедливости, терпения и воспитания молодёжи в поэзии автора. Также освещаются возможности изучения этих идей в современном образовательном процессе и их применения для развития духовно-нравственных качеств учащихся.

Ключевые слова: Абай Кунанбаев, поэзия, духовное воспитание, нравственное воспитание, просвещение, трудолюбие, современное образование.

IDEAS OF MORAL AND ETHICAL EDUCATION IN THE WORKS OF ABAI KUNANBAYEV AND THEIR APPLICATION IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article analyzes the ideas of spiritual and moral education reflected in the works of Abai Qunanbayev. It focuses on education, honest work, humanism, justice, patience, and youth development in the poet's writing. The article also explores how these ideas can be studied and applied in contemporary education to support the development of students' moral and spiritual values.

Keywords: Abai Qunanbayev, poetry, spiritual education, moral education, enlightenment, diligence, contemporary education.

Kirish. Bugungi ta'lim jarayonida yosh avlodga bilim berish bilan bir qatorda, ularda yuksak ma'naviyat, mustahkam axloqiy qarashlar, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda xalqning tarixiy va ma'naviy merosidan foydalanish, mutafakkirlarning tarbiyaga oid qarashlarini zamonaviy ta'lim mazmuni bilan bog'lash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qozoq xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Abay Qunanbayev asarlaridagi ma'naviy-axloqiy g'oyalarni o'rganish dolzarbdir.

Abay Qunanbayev she'rlari va "Qora so'zlar"ida inson kamoloti, ilm-ma'rifat, halol mehnat, adolat, sabr, rostgo'ylik va o'zini tarbiyalash kabi masalalarni yoritgan. Uning qarashlarida axloqiy tarbiya insonning kundalik xulqi va jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan chambarchas bog'liq. Abay ijodidagi "to'liq inson" g'oyasi ham aql, bilim, mehnat va ma'naviy fazilatlarning uyg'unligi asosida talqin qilinadi.

Abay merosining tarbiyaviy mazmuni ilmiy tadqiqotlarda turli jihatlardan o'rganilgan. Ayrim ishlarda uning pedagogik qarashlari, bolalar tarbiyasi va yoshlar ta'limiga oid fikrlari tahlil qilinsa boshqa tadqiqotlarda axloqiy qadriyatlar va ma'naviy kamolot masalalariga e'tibor qaratiladi . Shuningdek, Abay asarlarini maktab ta'limida tizimli o'rgatish va ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha metodik yondashuvlar ham taklif qilingan.

Mavjud ilmiy manbalar tahlili Abay asarlaridagi ma'naviy-axloqiy g'oyalarni zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari keng ekanini ko'rsatadi. Biroq bu g'oyalarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, fan mazmuni va kundalik tajribasi bilan bog'lab o'rgatish masalasi izchil yondashuvni talab qiladi. Shu sababli asarlarni faqat mazmunan tanishtirish bilan cheklanmay, ulardagi tarbiyaviy fikrlarni tahlil, munozara va amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilar hayotiga yaqinlashtirish muhimdir.

Mazkur maqolaning maqsadi - Abay Qunanbayev asarlaridagi ma'naviy-axloqiy

tarbiya g‘oyalarini tahlil qilish hamda ulardan zamonaviy ta’lim jarayonida foydalanish imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Maqolada mutafakkir asarlarida ilgari surilgan asosiy tarbiyaviy qadriyatlar ko‘rib chiqilib, ularni dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llashga doir yondashuvlar bayon etiladi.

Metodologiya. Ushbu maqolada Abay Qunanbayev asarlaridagi ma’naviy-axloqiy tarbiya g‘oyalarini aniqlash va ularni zamonaviy ta’lim jarayoni bilan bog‘liq holda tahlil qilish uchun sifatli tadqiqot yondashuvi qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida Abayning she’rlari va “Qora so‘zlar”i, shuningdek, uning pedagogik qarashlari va tarbiyaviy merosiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar olindi.

Tadqiqotda matn tahlili usuli orqali asarlarda uchraydigan ilm-ma’rifat, halol mehnat, adolat, rostgo‘ylik, sabr, insonparvarlik va o‘zini tarbiyalashga oid g‘oyalar ajratib olindi. Har bir g‘oya asarning mazmuni va tarbiyaviy yo‘nalishi bilan bog‘liq holda izohlandi. Tizimli tahlil yordamida bu fazilatlarning o‘zaro aloqasi, xususan, bilim olish va axloqiy kamolot, mehnat va mas’uliyat, shaxsiy tarbiya va jamiyatga foyda keltirish o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil orqali Abay merosidagi tarbiyaviy qarashlar zamonaviy ta’limning ma’naviy-axloqiy tarbiya maqsadlari bilan solishtirildi. Mavzuga oid ilmiy maqolalarda ilgari surilgan yondashuvlar umumlashtirilib, asarlardagi g‘oyalarni dars, munozara, matn tahlili va ijodiy topshiriqlarda qo‘llash imkoniyatlari belgilandi.

Tadqiqot nazariy tahlilga asoslangan. Shu bois maqolada taklif etilgan ta’limiy qo‘llash shakllari tajriba-sinov natijalari sifatida emas, balki Abay asarlari va mavzuga oid ilmiy manbalarni o‘rganishdan kelib chiqqan metodik tavsiyalar sifatida bayon etiladi.

Natijalar. Abay Qunanbayevning she’riy merosini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shoir ijodida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari alohida-alohida emas, balki o‘zaro chambarchas bog‘liq holda yoritilgan. Uning asarlarida ilmga intilish insonning fikrlash doirasini kengaytiruvchi va dunyoni anglashiga yordam beruvchi omil sifatida talqin etiladi. Mehnatsevarlik esa bilim va qobiliyatni amaliy faoliyatga yo‘naltirish, jamiyatga foyda keltirish hamda munosib hayot kechirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Halollik va rostgo‘ylik insonning o‘z vijdoni hamda boshqalar oldidagi mas’uliyatini belgilasa, sabr-toqat qiyinchiliklarni yengib o‘tish, maqsad sari izchil harakat qilish va hissiyotlarni boshqarishga yordam beradigan fazilatlar sifatida qadrlanadi. Shu tariqa, Abay nazarida komil inson bilimli, mehnatsevar, vijdonli, sabrli va o‘z xatti-harakatlari uchun javob bera oladigan shaxs sifatida gavdalanadi. Shoir she’riyatidagi bunday g‘oyalar faqat nasihat shaklida berilmaydi; ular insonning kundalik xulqi, tanlovi va jamiyat bilan munosabatlari misolida ochib boriladi. Abayning tarbiyaviy qarashlarini o‘rgangan tadqiqotlarda ham uning asarlari yosh avlodni axloq, mehr-oqibat va insonparvarlik ruhida tarbiyalash uchun muhim ma’naviy manba ekani ta’kidlanadi [4, 434–437-b.].

Shoirning “Ғылым таппай мақтанба” she’ri yoshlarni ilm olishga, mehnat qilishga, o‘z ustida muntazam ishlashga va hayotda ongli maqsadlar sari intilishga da’vat etadi. Asarda bilim inson kamolotining asosiy shartlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi: inson o‘qish va izlanish orqali nafaqat yangi ma’lumotlarni o‘zlashtiradi, balki fikrlash, xulosa chiqarish va voqea-hodisalarni baholash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shoir ilgari surgan tarbiyaviy qarashlardan kelib chiqib, ilm olishni faqat muayyan kasb yoki imtihonga tayyorgarlik bilan cheklamasdan, shaxsning o‘zini anglash va hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlash jarayoni sifatida talqin qilish mumkin. She’rni ta’lim jarayonida o‘rganish o‘quvchilar bilan bilimning inson hayotidagi o‘rni, mehnat va natija o‘rtasidagi bog‘liqlik, vaqtni mazmunli o‘tkazish hamda oldiga aniq maqsadlar qo‘yish kabi masalalarni muhokama qilish imkonini beradi. Shuningdek, o‘quvchilar she’rdagi fikrlarni o‘z tajribalari bilan qiyoslab, o‘z xatti-harakatlari, o‘qishga munosabati va kelajak rejalari haqida mulohaza yuritishlari mumkin. Abay ijodidagi yoshlar tarbiyasiga oid she’rlarni tahlil qilgan tadqiqotlarda ham ushbu asarning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati alohida qayd etilgan [8, 47–48-b.].

Abay she’riyatida mehnat tarbiyasi ham muhim o‘rin egallaydi. Shoir mehnatni shunchaki kundalik majburiyat yoki daromad topish vositasi sifatida emas, balki insonning o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, mustaqil hayot kechirishi va jamiyatda munosib o‘rin topishiga xizmat qiluvchi qadriyat sifatida tasvirlaydi. Mehnat orqali inson tajriba orttiradi, mas’uliyatni his qilishni o‘rganadi, o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni izchillik bilan bajarishga odatlanadi. Shu nuqtayi nazardan, “Әсемпаз болма әрнеге” she’ridagi insonning o‘z qobiliyatiga mos yo‘lni tanlashi, faoliyatida mazmun va maqsad topishi hamda jamiyatga foyda keltirishi haqidagi fikrlar alohida ahamiyat kasb etadi. Asarni ta’lim jarayonida kasbga yo‘naltirish, qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash, kelajakdagi maqsadlarni belgilash kabi mavzular bilan bog‘lab o‘rganish mumkin. Bunda o‘quvchilar uchun inson o‘z imkoniyatlarini qanday aniqlashi, tanlagan faoliyatiga qanday mas’uliyat bilan yondashishi va shaxsiy muvaffaqiyatni jamiyat manfaatlari bilan qanday uyg‘unlashtirishi haqida fikr yuritish imkoniyati yaratiladi. Abayning pedagogik qarashlarini tahlil qilgan mualliflar ham shoir asarlarida mehnat, kasb va foydali faoliyat g‘oyalari yoshlar tarbiyasida qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi [3, 39–51-b.; 7, 140–141-b.].

Shoirning ayrim asarlarida jamiyat hayotida uchraydigan loqaydlik, dangasalik, yolg‘onchilik, manmanlik va mas’uliyatsizlik kabi illatlar tanqid qilinadi. Abay bunday xulq-atvorni faqat shaxsning o‘ziga tegishli muammo sifatida emas, balki uning oilasi, atrofidagi insonlar va jamiyat bilan munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadigan holat sifatida yoritadi. “Сабырсыз, арсыз, еріншек” she’rida salbiy fazilatlarning inson xulqida qanday namoyon bo‘lishi va ularning oqibatlari badiiy vositalar orqali ochib beriladi. Asarda tanqid qilingan illatlarni tahlil qilish o‘quvchilarga yaxshi va yomon xulq-atvorni farqlash bilan birga, har bir xatti-harakatning sabab va natijalarini anglashga yordam beradi. Bunday asarlarni darsda muhokama qilishda axloqiy tushunchalarni quruq ta’riflar bilan cheklamasdan, she’rda tasvirlangan xatti-harakatlar, ularning insoniy munosabatlarga ta’siri va ehtimoliy oqibatlari misolida tahlil etish mumkin. O‘quvchilar qahramon yoki lirik subyektning xulqini baholash, unga o‘z munosabatini dalillar bilan ifodalash hamda shunday holatlarning oldini olish yo‘llarini muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlash va axloqiy mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Abay she’riyatidagi axloqiy muammolarni o‘rgangan tadqiqotda ham insoniy fazilatlarni ulug‘lash va

salbiy illatlarni tanqid qilish shoirning tarbiyaviy qarashlaridagi muhim jihatlar sifatida koʻrsatiladi [4, 434–437-b.].

“Жигиттер, ойын арзан, күлкі қымбат” she’rida insonlar oʻrtasidagi hurmat, muomala madaniyati va doʻstlik munosabatлари каби масалалар кўтарилади. Асарни синфда ўрганишда ўқувчилар ўзаро ҳурмат, самимий дўстлик ва масъулиятли муносабат ҳақида фикр юритишлари мумкин. Abayning yoshlar tarbiyasi, doʻstlik va oiladagi tarbiyaviy mas’uliyatga doir qarashlarini tahlil qilgan tadqiqotlarda ham ushbu mavzular uning pedagogik merosining tarkibiy qismi sifatida oʻrganiladi [3, 39–51-b.].

Oʻrganilgan manbalar Abay she’rlaridan foydalanish faqat adabiy mazmunni oʻzlashtirish bilan cheklanmasligi kerakligini koʻrsatadi. Tarbiyaviy natijaga erishish uchun oʻquvchilarga she’rdagi asosiy fikrni aniqlash, uni matndan dalil bilan asoslash va hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish topshiriladi. Abay asarlarini zamonaviy ta’limda oʻqitishga oid metodik ishlarda ham she’rlarni tizimli oʻrganish, oʻquvchilarning adabiy-madaniy bilimlarini kengaytirish va ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish zarurligi qayd etiladi [9, 100–102-b.].

Tahlil natijalari asosida Abay she’riyatidagi tarbiyaviy gʻoyalarni quyidagi yoʻnalishlarda oʻrganish mumkinligi aniqlandi:

ilmga intilish va maqsadga sodiqlik - “Ғылым таппай мақтанба” she’ri asosida;

mehnatsevarlik va oʻz oʻrnini topish - “Әсемпаз болма әрнеге” she’ri asosida;

salbiy xulq-atvor va uning oqibatlari - “Сабырсыз, арсыз, еріншек” she’ri asosida;

doʻstlik va muomala madaniyati - “Жигиттер, ойын арзан, күлкі қымбат” she’ri asosida.

Bu yoʻnalishlar Abay asarlaridagi ma’naviy-axloqiy mazmunni dars mavzulariga moslab tanlash va oʻquvchilar bilan maqsadli muhokama tashkil etishga yordam beradi. She’rlarni matn tahlili, savol-javob, munozara, esse va ijodiy topshiriqlar orqali oʻrganish mumkin. Bular tadqiqot manbalarini tahlil qilish asosida shakllantirilgan metodik takliflar boʻlib, ularning samaradorligini tajriba-sinov orqali alohida tekshirish lozim.

Muhokama. Tahlil natijalari Abay Qunanbayev she’riyatidagi ma’naviy-axloqiy tarbiya gʻoyalari bugungi ta’lim jarayonida ham mazmunan ahamiyatli ekanini koʻrsatadi. Shoir ilm olish, mehnat qilish, oʻz xulqini nazorat etish va jamiyatga foyda keltirishni inson kamolotining muhim shartlari sifatida yoritadi. Bu gʻoyalar zamonaviy ta’limning oʻquvchilarda bilimga intilish, mas’uliyat, halollik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadlari bilan uygun байна.

Abay she’rlarining tarbiyaviy ta’siri ularni tayyor xulosa sifatida taqdim etishga emas, balki o’quvchilar bilan birgalikda tahlil qilishga bog’liq. Масалан, “Ғылым таппай мақтанба” asarini o’rganishda o’quvchilardan ilm olish va maqsadga intilish haqidagi fikrlarni matndan topish, ularning bugungi hayotdagi ahamiyatini tushuntirish so’raladi. “Сабырсыз, арсыз, еріншек” she’ri esa salbiy xulq va uning oqibatlarini muhokama qilishga imkon beradi. Bunday yondashuv she’r mazmunini oʻzlashtirish bilan birga, oʻquvchilarning dalil keltirish va mustaqil xulosa chiqarish koʻnikmalarini ham rivojlantiradi.

Tadqiqotlarda Abay merosining axloqiy tarbiya, yoshlar kamoloti, mehnat va ijtimoiy mas’uliyatga oid jihatlari turli nuqtayi nazardan yoritilgan [3, 39–51-b.; 4, 434–437-b.; 8, 46–49-b.]. Ushbu yoʻnalishlarning oʻzaro bogʻliqligi shuni koʻrsatadiki, shoir she’rlaridagi tarbiyaviy mazmunni faqat bitta mavzu yoki mashgʻulot doirasida cheklab qoʻymaslik kerak. Masalan, mehnatsevarlik haqidagi she’rni kasbga yoʻnaltirish, shaxsiy mas’uliyat yoki jamiyatga foyda keltirish mavzulari bilan birgalikda oʻrganish mumkin.

Abay asarlarini zamonaviy ta’limda oʻqitish boʻyicha metodik maqolalarda she’rlarni tizimli oʻrganish hamda ularning ma’naviy-tarbiyaviy mazmuniga e’tibor berish tavsiya etiladi [9, 100–102-b.]. Biroq har bir asar va tarbiyaviy mavzuni oʻquvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va dars maqsadiga нийос танлаш зарур. Asarni tushunish qiyin bo’lsa, o’qituvchi avval davr va lug’aviy ma’nolarni qisqacha izohlab, keyin o’quvchilarni mustaqil tahlilga yo’naltirishi mumkin.

Maqolada taklif etilgan matn tahlili, munozara, esse va ijodiy topshiriqlar Abay she’riyatidagi gʻoyalarni oʻquvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bogʻlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu metodik shakllarning samarasi hozircha nazariy tahlil asosida asoslangan. Ularning oʻquvchilar bilimiga va axloqiy qarashlariga ta’sirini aniqlash uchun dars kuzatuvlari, suhbatlar hamda oʻquvchilarning yozma ishlarini tahlil qilishga asoslangan tajriba-sinov tadqiqotlari oʻtkazish lozim.

Umuman olganda, Abay she’riyatidan ta’lim-tarbiyada foydalanish oʻquvchilarga adabiy merosni oʻrgatish bilan birga, ilmga intilish, mehnatsevarlik, halollik va mas’uliyat kabi fazilatlarni muhokama qilish imkonini beradi. Buning uchun asarlarni maqsadga muvofiq tanlash, matnni oʻquvchilar bilan faol tahlil qilish va olingan xulosalarni kundalik hayot bilan bogʻlash muhimdir.

Xulosa. Abay Qunanbayev she’riyatida ilm-ma’rifat, mehnatsevarlik, halollik, sabr-toqat, insonparvarlik va mas’uliyat kabi ma’naviy-axloqiy tarbiya gʻoyalari muhim oʻrin tutadi. Shoir ushbu fazilatlarni inson kamoloti va jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq holda yoritadi. Shu bois uning asarlari yosh avlodni tarbiyalashda muhim ma’naviy manba boʻlib xizmat qiladi.

Maqolada koʻrib chiqilgan she’rlar Abayning tarbiyaviy qarashlarini turli yoʻnalishlarda oʻrganish imkonini beradi. “Ғылым таппай мақтанба” ilmga intilish va maqsadga sodiqlikni, “Әсемпаз болма әрнеге” mehnat va insonning jamiyatdagi oʻrnini, “Сабырсыз, арсыз, еріншек” esa salbiy xulq-atvorning oqibatlarini muhokama qilishga asos boʻla oladi.

Abay she’rlaridan zamonaviy ta’lim jarayonida samarali foydalanish uchun ularni oʻquvchilarning yoshi va dars maqsadiga mos tanlash, matnni tahlil qilish, munozara va ijodiy topshiriqlar tashkil etish lozim. Asarlardagi gʻoyalarni oʻquvchilarning hayotiy tajribasi bilan bogʻlash ularning mazmunni chuqurroq anglashiga va mustaqil fikr yuritishiga

ko‘maklashadi.

Kelgusida Abay she’riyatiga asoslangan mashg‘ulotlarning tarbiyaviy samaradorligini turli yosh guruhlarida tajriba-sinov orqali o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunday tadqiqotlar uning ma’naviy-axloqiy merosidan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni yanada asoslashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Qunanbayev, A. Eki tomdyq shyǵarmalar jinaǵy. 2-tom: Өleңder men audarmalar. Almaty: Zhazushy, 2002. 336 b.

[2] Oralova, G. “Наследие Абая – в воспитании поколения.” Вестник КазНПУ имени Абая. Серия филологических наук, 4(74)-son, 2021, 271–276-betlar. https://doi.org/10.51889/2020-4.1728-7804.59

[3] Öztürk, R., Sembi, N. “Kazak Millî Şairi Abay (İbrahim) Kunanbayev’in Pedagojik Görüşleri Üzerine Bir İnceleme.” Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, 41-son, 2017, 39–51-betlar. https://doi.org/10.21563/sutad.317755

[4] Sarbasov, B. “Moral Problems in Abai’s Poetry.” Абай атындағы ҚазҰПУ Хабаршысы. Филология ғылымдары сериясы, 1(71)-son, 2020, 434–437-betlar. Jurnal PDF

[5] Kurmanbayeva, K. S. “Проблема нравственности и человечности в поэзии Абая.” Абай атындағы ҚазҰПУ Хабаршысы. Филология ғылымдары сериясы, 2(60)-son, 2017, 177–180-betlar. Jurnal PDF

[6] Agibayeva, S. S., Leontyeva, A. Yu. “Концепция духовно-нравственного развития личности в поэзии Абая Кунанбаева.” Вестник Северо-Казахстанского университета имени М. Козыбаева, 2(51)-son, 2021, 81–85-betlar. Jurnal PDF

[7] Kartaeva, A., Iskakuly, D. “Концепция Абая: «Полноценный человек».” Keruen, 80-jild, 3-son, 2023, 63–72-betlar. https://doi.org/10.53871/2078-8134.2023.3-05

[8] Khalitova, I., Kyyakbaeva, U., Atemkulova, N. “Socio-pedagogical Ideas in Abay’s Legacy.” Pedagogy and Psychology, 1(42)-son, 2020, 172–178-betlar. https://doi.org/10.51889/2020-1.2077-6861.22

[9] Sargeltayeva, A. K. “The Concept of Character (Behavior) in the Poems of Abai.” Eurasian Journal of Philology: Science and Education, 188-jild, 4-son, 2022, 179–186-betlar. https://doi.org/10.26577/EJPh.2022.v188.i4.018

[10] Oralbekova, K., Kurmanbayeva, S., Kairbayeva, K., Kelgembayeva, B., Sabyrbayeva, R. “Abai’s Legacy as a Fundament of the Art of Speech.” Scientific Herald of Uzhhorod University. Series Physics, 55-son, 2024, 819–828-betlar. https://doi.org/10.54919/physics/55.2024.81tv9

[11] Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

[12] Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

[13] Fitrat, A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. - Toshkent: Ma’naviyat, 1998.

[14] Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

[15] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. - Toshkent: Fan, 1971.